

HUQUQIY XIZMATLARNI KO'RSATISHDA ROBOTOTEXNIKA VA AVTOMATLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Xudaybergenova Mohinur Temurovna

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoiy odil sudlov" fakulteti,

1-kurs V-potok 1-guruh talabasi.

mohinurtemurovna@tsul.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14435833>

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda yuridik xizmatlarni ko'rsatishda robototexnika va avtomatlashtirishning imkoniyatlari, afzalliklari va kamchiliklari o'rganiladi. Shuningdek, hozirda bu sohani rivojlantirish uchun olib borilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Yurtimizda bu soha qanchalik rivojlanayotgani, buning natijasida nimalar sodir bo'layotgani va bu sohani yanada rivojlantirish uchun qanday islohotlar amalga oshirishimiz kerakligi haqida ham so'z yuritiladi. Va oxirida, ayni paytda bu texnologiyalar orqali sodir bo'layotgan o'zgarishlarning statistic tahlil tendensiyalari bilan ham tanishishingiz mumkin. Huquqiy xizmatlarni ko'rsatishda robototexnika va avtomatlashtirish bilan bog'liq qonunchiligimizga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish to'g'risida qanday takliflar kiritishimiz mumkinligi haqida ham aytib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellect, raqamli texnologiyalar, blokchain, electron hujjatlar, kiberxavfsizlik, onlayn sud jarayonlari, robototexnika.

OPPORTUNITIES OF ROBOTICS AND AUTOMATION IN THE PROVISION OF LEGAL SERVICES

Abstract. This study examines the potential, advantages, and disadvantages of robotics and automation in the provision of legal services. Also, the reforms currently being carried out for the development of this sector are analyzed. It is also discussed how much this industry is developing in our country, what is happening as a result, and what reforms we need to implement in order to further develop this industry. And at the end, you can get acquainted with the trends of statistical analysis of the changes taking place through these technologies. How we propose to amend and add to our legislation related to robotics and automation in the provision of legal services it is also mentioned that it is possible.

Keywords: Artificial intelligence, digital technologies, blockchain, electronic documents, cyber security, online litigation, robotics.

ВОЗМОЖНОСТИ РОБОТЕХНИКИ И АВТОМАТИЗАЦИИ ПРИ ПРЕДОСТАВЛЕНИИ ЮРИДИЧЕСКИХ УСЛУГ

Аннотация. В данном исследовании рассматриваются потенциал, преимущества и недостатки робототехники и автоматизации в предоставлении юридических услуг.

Также анализируются реформы, проводимые в настоящее время для развития данного сектора. Также обсуждается, насколько эта отрасль развивается в нашей стране, что в результате происходит и какие реформы нам необходимо реализовать, чтобы и дальше развивать эту отрасль. И в конце вы сможете ознакомиться с тенденциями статистического анализа изменений, происходящих благодаря этим технологиям. Как мы предлагаем внести изменения и дополнения в наше законодательство, связанное с робототехникой и автоматизацией при оказании

юридических услуг также упоминается, что это возможно.

Ключевые слова: *Sun'iy intellect, raqamli texnologiyalar, blokchain, electron hujjatlar, kiberxavfsizlik, onlayn sud jarayonlari, robototexnika.*

KIRISH.

Bugungi kunga kelib, texnologiyalar jadal sur'atda rivojlanib bormoqda. Xususan, huquq sohasini tobora osonlashtirish maqsadida yuridik xizmat ko'rsatishni robotlashtirish va avtomatlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Klaus Schwab - "To'rtinchi sanoat inqilobi" asarida texnologiyalarning, jumladan, robototexnika va avtomatlashtirishning huquqiy xizmatlarga ta'sirini ta'kidlaydi. U, bu texnologiyalar huquqiy jarayonlarni samarali va tezkor o'tkazishga yordam berishini ta'kidlaydi.

Schwab ta'kidlaganidek, huquqiy texnologiyalar bizga ko'plab imkoniyatlar kalitini ochib bermoqda. Bu maqolada siz ushbu imkoniyatlar bilan qisman bo'lsa ham tanishasiz va bu sohaning afzalliklari va kamchiliklarini ham bilib olishingiz mumkin. Aytib o'tganimdek, bu sohaning afzalliklari ko'p bo'lib men sizga ulardan bir qanchasini keltirib o'taman. Avvalo, huquqiy xizmat ko'rsatishning qator imkoniyatlari haqida gaplashamiz.

1. Huquqiy xizmatlarni raqamlashtirib, elektron shaklda taqdim etish. Bu qog'ozbozlikni kamaytirish, jarayonlarni tezlashtirish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

2. Huquqiy xizmatlar jarayonlarini optimallashtirish va avtomatlashtirish. Buning uchun jarayonlar tahlil qilinib, takrorlangan operatsiyalar va qog'ozbozlik tugunlari aniqlanadi hamda ularni avtomatlashtirish orqali samaradorlik oshiriladi.

3. Huquqiy xizmatlarni Internet orqali uzatish va mijozlar bilan o'zaro aloqani raqamlashtirish. Bu mijozlarning xizmatlarni osonroq va tezroq olishlariga, huquqshunoslar esa ma'muriy yuklamani kamaytirishi imkonini beradi.

4. Hujjatlar aylanishi, mijozlar bilan aloqa, topshiriqlarni bajarish oqimi, moliyaviy hisobotlar va boshqa jarayonlarni integratsiya qilingan axborot tizimiga birlashtiriladi.

Ko'rib turganingizdek, huquqiy xizmatlarni ko'rsatishni avtomatlashtirish orqali ko'plab yengilliklar paydo bo'ladi. Ammo bu huquqiy texnologiyaning kamchiliklari yo'q degani emas.

Masalan, **Richard Susskind** - U avtomatlashtirish jarayonida insoniy faktorning yo'qolishi, ya'ni muloqot va empatiya yetishmasligi muammosini ta'kidlaydi. U, huquqiy masalalar murakkab va noaniq bo'lishi sababli, insoniy yondashuv zarurligini ko'rsatadi. **Mark Cohen** esa, avtomatlashtirish jarayonida ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik masalalariga e'tibor qaratadi.

Avtomatlashtirilgan tizimlar shaxsiy ma'lumotlarni saqlaganda, bu ma'lumotlarning himoyasi va xavfsizligi muhim ahamiyatga ega. Bu ikki mulohazani ham to'g'ri deb hisoblaymiz va men bu sohaning boshqa bir qator kamchiliklarini ham sanab o'taman.

1. Insoniy yondashuvning yo'qolishi:

Ya'ni avtomatlashtirish jarayonida mijozlar bilan shaxsiy aloqalar kamayadi, bu esa huquqiy masalalarni hal qilishda muloqot va empatiya yetishmasligiga olib kelishi mumkin.

2. Ehtimoliy xatolar:

Bunda dasturiy ta'minotdagi xatolar huquqiy qarorlarning to'g'riligiga ta'sir qilishi mumkin,

bu esa noxush oqibatlariga olib keladi.

3. Ma'lumotlar xavfsizligi:

Afsuski, avtomatlashtirilgan tizimlar shaxsiy ma'lumotlarni saqlashda xavfsizlik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.

4. Texnologiyaga bog'liqlik:

Agarda avtomatlashtirilgan tizimlar ishlamay qolsa yoki nosozlik yuzaga kelsa, bu huquqiy xizmatlarning davomiyligiga ta'sir qiladi.

5. O'qitish va adaptatsiya:

Vaholanki yangi texnologiyalarni qabul qilish va ularga o'rganish jarayoni murakkab bo'lishi mumkin, bu esa vaqt va resurslarni talab qiladi.

6. Mijozlarning ishonchsizlik hissi:

Ba'zi hollarda avtomatlashtirish jarayonida mijozlar xizmatlardan foydalanishda ishonchni yo'qotishi mumkin.

Huquqiy xizmatlarni ko'rsatishda avtomatlashtirishning ahamiyati, afzalliklari va kamchiliklarini qisman bo'lsa tushuntirib bera oldim deb o'ylayman va keling endi yuridik xizmatlarni ko'rsatishda robototexnikaning o'rni haqida gaplashamiz.

Robototexnika nima?

Robototexnika robotlar, mashinalar va qurilmalarni loyihalash, yaratish va amalda qo'llash bilan shug'ullanadi. Huquqiy hujjatlarni avtomatlashtirish uchun turli robotlar va mashinalar qo'llaniladi - hujjatlarni optik ko'chirish, tahlil qilish,

hujjat loyihalashtirish va boshqalar. Huquqiy hujjatlarni avtomatlashtirish va robototexnika texnologiyalari bir necha o'n yillar davomida taraqqiy etib kelgan. Ilk namunalari 1970-80-yillarda paydo bo'lgan bo'lsa, hozirda ulardan ko'plab sohalarda, shu jumladan huquqiy xizmatlarda keng foydalanilmoqda.¹

Huquqiy xizmatlarda qo'llanilishining asosiy sababi shundaki, biz bu texnologiya orqali quyidagi bir qator imkoniyatlarga erishmoqdamiz.

- Ish unumdorligini oshirish va xarajatlarni qisqartirish – robotlar va avtomatlashtirilgan tizimlar insonlarga qaraganda tezroq va arzonroq ishlaydi.

- Xatolarni kamaytirish - avtomatlashtirilgan tizimlar insoniy xatoliklar va charchash omillarini bartaraf etadi.

- Tezkor va doimiy xizmat ko'rsatish - robotlar kunning istalgan vaqtida, doimiy ravishda, xatoliksiz xizmat ko'rsata oladi.

- Ma'lumotlarga tezkor va istiqbolli kirish - avtomatlashtirilgan tizimlar ulkan ma'lumotlar bazasiga tezkor va samarali kirishni ta'minlaydi.

- Qabul qilish jarayonini tezlashtirib, mijozlar mamnuniyatini oshirish.

Ko'rganingizdek huquqiy xizmatni robotlashtirish orqali bir qator imkoniyatlarga sazovor bo'lmoqdamiz. *Elizabeth MacDonald* - "Legal Technology and the Future of Law" asarida aytganidek, "Robototexnikaning huquqiy xizmatlarga kirishini osonlashtirishi va murakkab jarayonlarni soddalashtirish imkoniyatlarini ko'rsatadi".

¹ Richard Susskind - "The Future of the Law"

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, hozirgi kunda bir qator huquqiy texnologiyalar rivojlanib bormoqda. Huquqiy texnologiyalar kelajakda huquqiy xizmatlarni yanada samarali, arzon va qulay qilishda muhim rol o'ynaydi. Ular huquqiy jarayonlarni soddalashtirish, mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash va yuridik firmalarning ish samaradorligini oshirishga yordam beradi. **Richard Susskind** ham "The Future of the Law" asarida huquqiy texnologiyalarni kelajakda huquqiy xizmatlarni yanada samarali va qulay qilish uchun zarur deb ta'kidlaydi. Susskind, avtomatlashtirish va sun'iy intellekt yordamida huquqiy masalalarni hal qilishning yangi imkoniyatlarini ko'radi. Endi esa sizga bir qancha huquqiy texnologiyalar haqida ham ma'lumot taqdim qilib o'tmoqchiman.

1. Sun'iy intellekt (AI): Huquqiy tadqiqotlar va hujjatlarni tahlil qilishda sun'iy intellektdan foydalanish, yuridik firmalarga samaradorlikni oshirishda yordam beradi. AI yuridik maslahatlar va ish jarayonlarini tezlashtirishi mumkin.

2. Blockchain: Huquqiy hujjatlarni ishonchli va o'zgarmas tarzda saqlashda blockchain texnologiyasi qo'llanilmoqda. Bu, masalan, mulk huquqlari va shartnomalarni tasdiqlashda muhim rol o'ynaydi

3. Elektron hujjatlar: Elektron imzolar va raqamli hujjatlar yuridik jarayonlarni soddalashtirib, vaqt va xarajatlarni kamaytiradi.

4. Kiberxavfsizlik: Huquqiy ma'lumotlarning himoyasi uchun kiberxavfsizlik choralarining kuchaytirilishi zaruriyati oshmoqda. Bu, maxfiylik va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi.

5. Onlayn sud jarayonlari: COVID-19 pandemiyasi davrida onlayn sud jarayonlari ommalashdi. Bu sud tizimiga kirishni osonlashtiradi va jarayonlarni tezlashtiradi.

6. Raqamli qonunchilik: Raqamli iqtisodiyot va texnologiyalar rivojlanishi bilan yangi qonunlar va normativ hujjatlar ishlab chiqilmoqda, bu esa texnologik o'zgarishlarga moslashishga yordam beradi.

Sun'iy intellect.

Sun'iy intellect – bu zamonaviy kompyuterlarda amalga oshiriladigan va insonning real intellekti, uning fikrlash faoliyati, psixikasi xususiyatlari, ya'ni avval jamlangan axborotlar asosida maqsadga muvofiq qarorni tanlash qobiliyatini modellashtirish uchun mo'ljallangan sun'iy yaratilgan tizimdir. Sun'iy intellect muammosi - kishilik tarixida insoniyat oldida turgan eng murakkab ilmiy-amaliy muammolardan biridir.

Huquq sohasidagi materiallar hajman shu qadar katta va mazmunan shu qadar murakkabki, intellectual, shu jumladan ekspert tizimlarini yaratish nafaqat mumkin, balki zarurhamdir. Intellektual tizimlar va texnologiyalar qonun hujjatlari sohasiga ham kirib kelmoqda. Bir qator mamlakatlarda davlat va huquq sohasiga intellectual texnologiyalar va tizimlarni joriy etishning maxsus dasturlari qabul qilingan. Jumladan, Yaponiyaning Bosh politsiya boshqarmasida maslahat punktlariga voyaga yetmaganlar jinoyatchii muammolari bo'yicha yordam ko'rsatish tizimi, yirik iqtisodiy jinoyatlarni tergov qilish tizimi va boshqa shunga o'xshash tizimlar ishlab chiqilgan.

Dastlabki eng soda intellectual tizimlar sobiq SSSRda 60- va 70-yillarda yaratilgan.

Bunday tizimlar kompyuter yordamida murakkab faktlarning tarkiblarini tasniflash imkonini berga. 60-yillarda huquqni qo'llash sohasini modellashtirish masalalari akademik

V.N.Kudryavsevning diqqat markazida bo‘lgan. V.N.Kudryavsev turli yuridik qoidalar, institutlar, alohida normalar birgalikda va ayri holda ko‘plab har xil algortimlarga ega ekanligini qayd etadi. Ammo ular haddan tashqari umumiy xususiyatga ega. Shunga qaramay, yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlarni tasniflash jarayonini tartibga soluvchi dasturlar yaratilishi mumkin. 1979-yili N.V.Kudryavsev vazifasi jinoyatlarni tasniflashda huquq normalarining qo‘llanilishi jarayonining evristik xususiyatlarini o‘rganishdan iborat bo‘lgan psixologik eksperiment o‘tkazdi. Eksperiment natijasida ko‘pgina holatlarda vazifalarining yechimi ikki qismdan: vazifaning tipini aniqlash algoritmini tuzish va undan foydalanish hamda algoritmdan so‘zning o‘z ma‘nosida foydalanishdan iborat ekanligi aniqlandi. Vazifaning tipini aniqlashning maqsadi yechimni qaysi sohadan izlash zarurligini taxminan aniqlashdan iborat. Unga muvofiq tasniflashning asosiy algoritmi ham qayta tuzildi.

"**Artificial Intelligence and Legal Services**" asarida sun'iy intellektning huquqiy hujjatlarni avtomatlashtirishdagi o‘rni quyidagilar orqali ta'riflanadi: **Hujjatlarni tayyorlash:** Sun'iy intellekt huquqiy hujjatlarni, masalan, shartnomalar yoki da'vo arizalarini tez va aniq tayyorlashga yordam beradi.

Avtomatik shablonlar va ma'lumotlarni tahlil qilish orqali jarayonlarni soddalashtiradi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish: AI tizimlari katta hajmdagi huquqiy ma'lumotlarni, sud qarorlarini va boshqa hujjatlarni tahlil qilishda foydalaniladi. Bu huquqshunoslarga muhim xulosalar chiqarishga yordam beradi.²

Risksiz tahlil: Sun'iy intellekt, muayyan huquqiy hujjatlar yoki shartnomalardagi potentsial muammolarni aniqlash orqali, yuridik xavflarni kamaytiradi.³

Yuridik maslahatlar: AI platformalari foydalanuvchilarga yuridik masalalarda maslahatlar berish imkonini taqdim etadi, bu esa huquqshunoslarning ish yukini yengillashtiradi.

Ish jarayonlarini optimallashtirish: Avtomatlashtirish jarayonlari orqali yuridik firmalar ish jarayonlarini yanada samarali va tezkor qilib, mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilayd

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, huquq ijodkorligida kompyuter va intellectual texnologiyalardan foydalanish bu jarayonni yanada Yuqori darajaga olib chiqish imkonini beradi.

Shu bilan birga qonun hujjatlarini yaratish juda murakkab ijodiy jarayon ekanligi ham hisobga olinishi lozim. Bu jarayonni to‘liq algoritmlashtirib bo‘lmaydi. Kompyuter qonun loyihasini “yaratish”ga qodir.⁴

Metodologiya.

Huquqiy xizmatlar avvalgi davrlarda asosan huquqshunoslar va advokatlar tomonidan ko‘rsatilgan. Mijozlar bilan bevosita muloqot, hujjatlarni qo‘l bilan tayyorlash va sud jarayonlarini yuritish muhim o‘rin tutardi. Huquqiy xizmatlar ko‘pincha juda formal va ko‘p vaqt talab qiluvchi jarayonlar bo‘lgan. Buning oldini olish uchun esa bu soha yo‘lga qo‘yildi ya‘ni yuridik xizmatlarni ko‘rsatishda robototexnika avtomatlashtirish. Bu texnologiya yurtimizga

² Daniel Katz - "Data-Driven Law"

Mark Cohen - "The Future of Legal Services"

³ Rebecca Sandefur - "Access to Justice"

Bobby Balachandran - "Legal Technology and the Future of Law"

⁴ Susan Nevelow Mart - "The Law Librarian's Dilemma: A Guide to Automation"

kirib kelganidan keying o'zgarishlarni ko'radigan bo'lsak, avtomatlashtirish natijasida huquqiy xizmatlar ko'rsatish tezligi 30-50% ga oshdi.⁵ Misol uchun, hujjat tayyorlash jarayoni 2-3 kun o'rniga 1-2 soat ichida amalga oshirilishi mumkin, yuridik xizmatlardan foydalanuvchilar orasida qoniqish darajasi o'rtacha 80% dan yuqori bo'lishi kuzatilmoqda, bu esa avvalgi davrlar bilan solishtirganda sezilarli darajada yuqori, avtomatlashtirish orqali huquqiy xizmatlarning xarajatlari 20-30% ga kamaydi. Bu, xizmatlar narxining pasayishiga va ko'proq odamlarning huquqiy xizmatlardan foydalanishiga olib keldi, avtomatlashtirilgan xizmatlar orqali yuridik xizmatlardan foydalanish 2018-yildan 2023-yilgacha 40% ga o'sgan. Shunday bo'lishiga qaramay, O'zbekistonda huquqiy xizmat ko'rsatishda robototexnika va avtomatlashtirish darajasi boshqa davlatlarnikiga nisbatan pastroq. Masalan, Qozog'iston va Rossiya kabi davlatlarda bu sohada yanada rivojlangan texnologiyalar va innovatsiyalar qo'llaniladi. Buning sababi esa yurtimizda malakali kadrlar yetishmasilgi va asosan iqtisodiy resurslar, texnologik infratuzilma bilan chambarchas bog'liq deb o'ylayman. Bu holatga yechim topadigan bo'lsak, huquqiy texnologiyalarga davlat byudjetidan ko'proq mablag'lar ajratishimiz, yangi kadrlarni tayyorlashimiz va kadrlarni qayta tayyorlashimiz kerak va shart deb o'ylayman

Natijalar.

Endi esa statistic tahlilga o'tamiz. Bunda huquqiy texnologiyalarning 2024- yildagi raqamli tendensiyalari bilan tanishib chiqamiz. 2024-yilda huquqiy xizmatlar sohasida robototexnika yordamida hayotimizda va avtomatlashtirishning qo'llanilishi sezilarli darajada oshdi. Huquqiy texnologiyalar (LegalTech) bozorining o'sishi: 2024-yilda global LegalTech bozorining hajmi 25% ga oshib, 20 milliard AQSh dollariga yetdi. Bu o'sish huquqiy xizmatlarni avtomatlashtirish va robototexnika texnologiyalarining keng qo'llanilishi bilan bog'liq. Sun'iy intellekt (AI) asosidagi huquqiy xizmatlar: Yirik yuridik firmalarning 60% dan ortig'i AI texnologiyalarini hujjatlarni tahlil qilish, huquqiy tadqiqotlar va kontraktlarni boshqarish jarayonlarida qo'llamoqda. Bu esa ish samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirishga yordam bermoqda. Robot jarayonlarni avtomatlashtirish (RPA): Huquqiy xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalarning 45% i RPA texnologiyalarini ma'muriy vazifalarni avtomatlashtirishda qo'llamoqda. Bu esa inson resurslarini murakkab huquqiy masalalarga yo'naltirish imkonini bermoqda. Virtual huquqiy yordamchilar: 2024-yilda virtual huquqiy yordamchilar orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish 35% ga oshdi. Bu texnologiyalar mijozlarga 24/7 rejimida tezkor va samarali huquqiy maslahatlar olish imkonini bermoqda.

Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bu texnologiyalari yordamida insoniyat ko'plab imkoniyatlar va yutuqlarga erishmoqda.

Muhokama.

Statistik tahlil ma'lumotlariga qaraganda, O'zbekistonda ham bu soha ancha rivojlanib

⁵ Huquqiy axborot texnologiyalari. M.S.Yunusova, J.O 'Muxammadiyev. – Toshkent: Toshkent Davlat yuridik universiteti, 2022. – 192 bet.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi statistika ma'lumotlari.

Yuridik xizmatlar bo'yicha tadqiqotlar va maqolalar.

Onlayn yuridik platformalar va ularning foydalanuvchi tahlillari.

Huquqiy yordam tashkilotlarining hisobotlari.

bormoqda, ammo bu ko'rsatkichni xorijiy mamlakatlar holati bilan solishtiradigan bo'lsak, O'zbekiston ancha orqada ekanligini ko'ramiz. Buning oldini olish maqsadida yurtimizda ham yangi islohotlar olib borilmoqda. Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.10.2024 yildagi PQ-358- sonli qarorini misol qilib olsak bo'ladi.

Bu qaror quyidagilarni o'z ichiga oladi: Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizning sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishiga erishish, shuningdek, **“Raqamli O'zbekiston — 2030”** strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida:

1. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030- yilga qadar rivojlantirish strategiyasi (keyingi o'rinlarda — Strategiya) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

a) Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish bo'yicha erishish lozim bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlar, shu jumladan:

sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini 1,5 milliard AQSh dollariga yetkazish;

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida sun'iy intellekt asosida ko'rsatilayotgan xizmatlar ulushini 10 foizga yetkazish;

sun'iy intellekt yo'nalishida faoliyat yurituvchi ilmiy laboratoriyalar sonini 10 taga yetkazish hamda yuqori quvvatli hisoblash serverlarini ishga tushirish; Hukumatning sun'iy intellektga tayyorlik indeksida (Government AI Readiness Index) O'zbekiston Respublikasining birinchi 50 ta o'rindagi davlatlar qatoriga kirishiga erishish;

b) Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalar:

sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani shakllantirish, sohada standartlarni takomillashtirish va xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash;

ma'lumotlarni qayta ishlash hamda sun'iy intellektga asoslangan loyihalarni ishga tushirish uchun texnik infratuzilma yaratish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida mazkur yo'nalishdagi ustuvor loyihalarni amalga oshirish;

sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha aholining bilim va ko'nikmalarini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish.

Bu qarordan kelib chiqadiki, yurtimizga bu soha kengroq talqinda kirib kelishi uchun ko'plab harakatlar amalga oshirilmoqda.

Taklif.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori 1- ilova 2-bobida shunday deyilgan:

2-bob. Mamlakatimizda sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanishining joriy holati

Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora- tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4996-son qarori qabul qilingan. Mazkur qarorga muvofiq:

2021/2022 o'quv yilidan boshlab **15 ta oliy ta'lim** muassasasida **sun'iy intellekt** texnologiyalarining **iqtisodiyot tarmoqlari** hamda **davlat boshqaruvi** tizimida amaliy qo'llanishi

bo'yicha kurslar va fanlar joriy etildi;

Men bu qarorga qo'shimcha kiritmoqchiman, ya'ni hozirgi kungacha faqat 15 ta oliy ta'lim muassasasida sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyot tarmoqlari hamda davlat boshqaruvi tizimida amaliy qo'llanilishi bo'yicha kurs va fanlar tashkil etilgan. Men mamlakatimizning sanoqlari oliy ta'lim muassasalarida emas, balki barcha oliy ta'lim muassasalarida, nafaqat oliy ta'lim, balki o'rta ta'lim muassasalarida *sun'iy intellekt* texnologiyalarining *huquq* tizimida amaliy qo'llanilishi bo'yicha kurslar va fanlar joriy etilishini ta'minlash to'g'risida taklif bildirmoqchiman. Bilamizki, ko'plab rivojlangan davlatlarning avvalo huquqiy madaniyati yuksak darajada rivojlangan bo'ladi. Yurtimida esa huquqiy madaniyatning rivojlanishi anchagina sust jarayon. Buning sababi huquqiy ong va tafakkurning zaifligida deb o'ylayman. Buning oldini olish uchun biz har bir insonga yoshligidan huquqiy bilimga ega bo'lishi, o'z huquqlaridan qanday foydalanishi va amalga oshirishni bilishi va anglashi uchun shart-sharoitlar yaratib berishimiz shart deb o'ylayman. Bu yurtimizda huquqiy madaniyat rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi degan umiddaman.

Xulosa.

Ushbu tadqiqot yuridik xizmatlarni ko'rsatishda robototexnika va avtomatlashtirishning imkoniyatlari ya'ni afzalliklarini, kamchiliklarini o'rganib chiqdi. Siz bu tadqiqotda so'ngi yillarda yurtimizda va xorijda yuridik xizmatlarni ko'rsatishda robototexnika va avtomatlashtirishning statistik holati bilan tanishib oldingiz degan umiddaman. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, bu sohani rivojlantirish orqali ko'plab davlatlar bir qancha qulayliklarga ega bo'lmoqda. Lekin shuni ham aytish kerakki, bu sohada ham barcha sohalarga qaraganda kamchiliklar ya'ni bo'shliqlar mavjud. Ammo hamma sohada ham kamchiliklari bo'lishi bu tabiiy hol. Shuning uchun shunday texnologiyalarni rivojlantirishga yanada qattiqroq bel bog'lasak, kutilganidan ham ko'proq natijalarga erishamiz deb o'ylayman.

MUAMMOLAR:	YECHIMLAR:
1. Etik muammolar ya'ni, - Sun'iy intellekt (SI) tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning adolatliligi - Shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligi	- Aniq etik kodekslar ishlab chiqish - Insonga yo'naltirilgan SI tizimlari yaratish - Keng ko'lamli jamoatchilik va mutaxassislarning ishtirokida nazorat mexanizmlarini yaratish
2. Huquqiy qoidalar va standartlar: - Robototexnika va SI uchun etarli normativ bazaning yo'qligi - Texnologiyalarni tartibga soluvchi qonunchilik mexanizmlarining rivojlanmagan bo'lishi	- Yangi texnologiyalarga moslashuvchi moslashuvchan qonunchilik yaratish - Xalqaro standartlar va reglamentlar ishlab chiqish - Muntazam yangilanadigan normativ hujjatlar tizimini shakllantirish

<p>3. Texnologik cheklovlar: - Murakkab vaziyatlarni to'liq baholash qobiliyatining cheklangan bo'lishi - Kontekstni chuqur tushinishda qiyinchiliklar</p>	<p>- Adaptiv va o'rganuvchi SI algoritmlarini yaratish - Insonga yo'naltirilgan dizayn printsiplarini qo'llash - Ko'p sohali malakali mutaxassislarni jalb etish</p>
<p>4. Xavfsizlik muammolari: - Kiberhujumlar va ma'lumotlarni buzib yuborish xavflari - Tizimlarning nostabilligiga oid risklarni boshqarish</p>	<p>- Kuchli kriptografik himoya mexanizmlari - Doimiy monitoring va testlash tizimini joriy etish - Kiberhimoya bo'yicha mutaxassislarni muntazam o'qitish</p>
<p>5. Inson-texnika o'zaro ta'siri: - Ishchi o'rinlarning qisqarishi - Xodimlarning texnologiyalarga moslasha olmaslik xavfi</p>	<p>- Qayta tayyorgarlash va malakasini oshirish dasturlari - Yangi ish o'rinlarini yaratish Xodimlarni texnologiyalar bilan hamkorlikda ishlashga o'rgatish</p>
<p>6. Huquqiy mas'uliyat: - Xatolardan kim javobgar bo'lishi Javobgarlik chegaralarini belgilash murakkabligi</p>	<p>- Aniq huquqiy mexanizmlar ishlab chiqish - Javobgarlikni tartibga soluvchi normativ hujjatlar qabul qilish Sug'urta tizimlarini takomillashtirish</p>

REFERENCES

1. Richard Susskind - "The Future of the Law"
2. Daniel Katz - "Data-Driven Law"
3. Mark Cohen - "The Future of Legal Services"
4. Rebecca Sandefur - "Access to Justice"
5. Bobby Balachandran - "Legal Technology and the Future of Law"
6. Susan Nevelow Mart - "The Law Librarian's Dilemma: A Guide to Automation"
7. M.S Yunusova, J.O 'Muxammadiyev. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2022. – 192 bet
8. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi statistika ma'lumotlari.
9. Yuridik xizmatlar bo'yicha tadqiqotlar va maqolalar.
10. Onlayn yuridik platformalar va ularning foydalanuvchi tahlillari.
11. Huquqiy yordam tashkilotlarining hisobotlari.6. O 'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi hisobotlari
12. Oliy sud statistika bo 'limi ma'lumotlar
13. Digital justice loyihasi monitoringi hisobotlari
14. UNDP O 'zbekiston vakolatxonasi tadqiqotlari

15. Jahon banki “Doing business” hisoboti
16. Thomson Reuters Legal Tech Report 2023
17. European Legal Technology Association (ELTA) Annual Survey
18. Gartner Legal Technology Market Analysis
19. World Economic Forum Legal Tech Impact Study
20. Legal Tech Asia Pacific Market Research
21. LEX.UZ – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi
<https://lex.uz/>
22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori
<https://lex.uz/uz/docs/-7158604>